

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

### №4 (2)

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026  
APREL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 - Texnika fanlari

08.00.00 - Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic Resource Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, aprel.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afrovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

BYUDJET SUBYEKTLARI ISHTIROKINI QISQARTIRISH ASOSIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH.....	16
<b>PhD. Mahmudov Rahimjon Hamid o'g'li</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	25
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz Maxmudovich</b>	
XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA PUL OQIMLARI AUDITINI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	30
<b>Atamurodov Saidmurad Yaxyoyevich, Sindarova Aziza Musurmon qizi</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	42
<b>Xasanov Sardor Xazratkulovich</b>	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	50
<b>Axmedov Xasanjon Muxamadovich</b>	
IQTISODIY O'SISH SIFATI VA UNI KO'RSATKICHLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI.....	55
<b>Axmedov Xasanjon Muxamadovich</b>	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	60
<b>Hayitov Jamshid Xolboyevich</b>	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	65
<b>Ortiqov Husan Usmonaliyevich</b>	
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDIT FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH.....	70
<b>Xamidova Zarifa Urol qizi</b>	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	74
<b>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</b>	
XIZMATLAR SEKTORI RIVOJLANISHINING KAMBAG'ALLIKKA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASI VA KO'RSATKICHLAR TIZIMI.....	77
<b>Dawletmuratov Adilbay Mirzaboyevich</b>	
BIZNES JARAYONLARINI MONITORING QILISH TIZIMINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	84
<b>Dadajonova Madina Ravshan qizi</b>	
ISTE'MOL NARXLARI INDEKSINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI.....	89
<b>Ismailova Shaxnoza Uktamovna</b>	
MINTAQA IQTISODIYOTI TARMOQLARINI KLASTERLASHTIRISH SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING EMPIRIK MODEL: STATISTIK VA EKONOMETRIK TAHLIL.....	94
<b>Ollokulova Feruza Mansurovna, Abdurahmonov Abdulaziz</b>	
ENERGIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING KORXONALAR RENTABELLIGIGA TA'SIRI.....	100
<b>Hayitov Jamshid Xolboyevich</b>	
IMPROVING THE EFFICIENCY OF BANKS' GREEN FINANCING IN UZBEKISTAN AND KAZAKHSTAN.....	105
<b>Maxmudov Rahimjon</b>	
MAHALLIY BUDJETLAR MUSTAQILLIGINI TAKOMILLASHTIRISH VA YANADA OSHIRISH.....	109
<b>Abduraxmonova Gulmira</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MOLIVAVIY HISOBOTLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR.....	114
<b>Teshabayev Dilmurod Boxodir o'g'li</b>	



FARG 'ONA VILOYATINING INNOVATSION RIVOJLANISHI.....	120
<b>Tuychieva Odina Nabiyeвна</b>	
INDICATORS OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF THE "GREEN" ECONOMY.....	131
<b>Mirzaev Kulmamat Djanzakovich</b>	
KREDITLASH MEXANIZMINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI VA UNING TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI.....	140
<b>Ortiqov Husan Usmonaliyevich</b>	
KORPORATIV BOSHQARUVNING XALQARO TAJRIBASI VA UNING QIYOSIY TAHLILI.....	144
<b>Shakirova Gulbaxor Sharipdjanovna</b>	
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKLARINI BOSHQARISHNI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	149
<b>Xasanov Sardor Xazratkulovich</b>	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNING INSTITUSIONAL ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	156
<b>Odinayev Ravzatullo Asatulloevich</b>	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIVAVIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	161
<b>Karimov Alibek Valievich</b>	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA FRANCHAYZING TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA PLATFORMA MODELLARI VA ULARNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	167
<b>Xodjayev Anvar Rasulovich, Nasimov Dilshodbek Hotam o'g'li</b>	
"O'ZBEKISTON GTL" MAHSULOTLARNINING FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI VA ULARNI KOMPOUDIRLASH ASOSIDA EKOLOGIK TOZA YOQILG'ILAR OLIISH ISTIQBOLLARI.....	173
<b>Ro'ziyev Aliakbar, Hayitov Ruslan, Mavlonov Shohrux</b>	
HUDUDIY MEHNAT BANDLIGINI TA'MINLASHDA AVTOSERVIS KORXONALARINING ROLI.....	179
<b>Marqayev Xurshid Aliqulovich</b>	
ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	183
<b>Zaripova Sayohat Zafarovna</b>	



# ASOSIY VOSITALAR AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH



## Zaripova Sayohat Zafarovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Boshqa tarmoqlarda buxgalteriya hisobi va audit kafedrasida assistenti

E-mail: [sayokhatzaripova98@mail.ru](mailto:sayokhatzaripova98@mail.ru)

Tel.: +998 99 253-84-44

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada asosiy vositalar auditini xalqaro audit standartlari asosida takomillashtirish masalalari yoritilgan. Asosiy vositalarni tan olish, baholash, amortizatsiya hisoblash va ularning audit jarayonidagi tekshiruv usullari tahlil qilingan. Shuningdek, milliy audit amaliyoti bilan xalqaro standartlar o'rtasidagi farqlar aniqlanib, ularni bartaraf etish yo'llari ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijasida asosiy vositalar auditining samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy takliflar berilgan.

**Kalit so'zlar:** asosiy vositalar, audit, xalqaro standartlar, IAS 16, amortizatsiya, baholash, ichki nazorat, moliyaviy hisobot, auditorlik tekshiruvi, aktivlar.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования аудита основных средств на основе международных стандартов аудита. Проанализированы методы признания, оценки, начисления амортизации и проверки основных средств в процессе аудита. Также выявлены различия между национальной аудиторской практикой и международными стандартами, а также разработаны пути их устранения. В результате исследования предложены практические рекомендации по повышению эффективности аудита основных средств.

**Ключевые слова:** основные средства, аудит, международные стандарты, IAS 16, амортизация, оценка, внутренний контроль, финансовая отчетность, аудиторская проверка, активы.

**Annotation.** This article examines the issues of improving the audit of fixed assets based on international auditing standards. The methods of recognition, valuation, depreciation calculation, and audit procedures of fixed assets are analyzed. In addition, the differences between national audit practices and international standards are identified, and ways to eliminate them are proposed. As a result of the study, practical recommendations for improving the efficiency of fixed asset audits are developed.

**Keywords:** fixed assets, audit, international standards, IAS 16, depreciation, valuation, internal control, financial reporting, audit procedures, assets.

## KIRISH

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, davlat korxonalari va xususiy sektor faoliyatining shaffofligini oshirish hamda xalqaro iqtisodiy maydonga integratsiyani chuqurlashtirish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu jarayonda buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatini xalqaro standartlarga moslashtirish muhim ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori mamlakatda moliyaviy hisobot tizimini tubdan isloh qilishning asosiy huquqiy asosini yaratdi. Mazkur qarorga muvofiq, yirik xo'jalik yurituvchi subyektlarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) bosqichma-bosqich joriy etilmoqda hamda moliyaviy axborotlarning xalqaro darajada tan olinishi ta'minlanmoqda [1].

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ham iqtisodiyotni rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash, audit tizimini takomillashtirish va korporativ boshqaruv sifatini oshirish belgilangan [2].

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli qarorlari hamda Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlangan normativ-huquqiy hujjatlar asosiy vositalar hisobi va ularning auditini xalqaro talablar asosida tashkil etish uchun zarur tashkiliy-huquqiy asoslarni shakllantirmoqda. Ushbu hujjatlar asosida korxonalarda buxgalteriya hisobi milliy standartlari xalqaro standartlarga yaqinlashtirilmoqda hamda auditorlik faoliyatida zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda [3].

Asosiy vositalar korxonalarining eng muhim qismlaridan biri bo'lib, ular ishlab chiqarish jarayonining moddiy-texnik bazasini tashkil etadi. Shu sababli, ularning to'g'ri hisobga olinishi, baholanishi va auditdan o'tkazilishi moliyaviy hisobotning ishonchligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Amaliyotda esa asosiy vositalarni hisobga olish va audit qilish jarayonida ayrim kamchiliklar, jumladan, hujjatlashtirishdagi nomuvofiqliklar, amortizatsiya hisoblashdagi xatoliklar hamda ichki nazorat tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi kuzatilmoqda.

Shu bois, asosiy vositalar auditini xalqaro audit standartlari asosida takomillashtirish bugungi kunda dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda ISA (International Standards on Auditing) talablari asosida audit jarayonlarini tashkil etish, risklarni baholash va ichki nazorat tizimini kuchaytirish muhim ahamiyatga ega [4].

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — asosiy vositalar auditini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish yo'nalishlarini o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Asosiy vositalar auditini takomillashtirish masalasi buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, ushbu sohada mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, asosiy vositalar auditining samaradorligi ularni hisobga olish, baholash, amortizatsiya hisoblash hamda ichki nazorat tizimining sifatiga bevosita bog'liq.

Xorijiy olimlardan A. Arens va J. Loebbekke auditorlik nazariyasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Ularning tadqiqotlarida auditorlik tekshiruvlari riskka asoslangan yondashuv asosida amalga oshirilishi lozimligi ta'kidlanadi. Asosiy vositalar auditida auditor avvalo risklarni aniqlashi, so'ngra ushbu risklarni kamaytirishga qaratilgan audit protseduralarini belgilashi kerakligi ko'rsatilgan. Bu yondashuv auditorlik tekshiruvining samaradorligini oshiradi [5].

R. Hayes va P. Vallage o'z ishlarida xalqaro audit standartlarining (ISA) amaliy ahamiyatini chuqur tahlil qilib, asosiy vositalar auditida ISA 315 (subyekt va uning muhitini tushunish) hamda ISA 330 (aniqlangan risklarga javob berish) standartlarining muhimligini ta'kidlaydi. Ularning fikricha, asosiy vositalar auditida risklarni to'g'ri baholash auditorlik xulosasining ishonchligini ta'minlaydi [6].

Shuningdek, D. Alexander va C. Nobes buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotning xalqaro tizimini o'rganib, asosiy vositalar hisobida IFRS (xususan IAS 16 "Property, Plant and Equipment") standartining ahamiyatini yoritgan. Ular asosiy vositalarni tan olish mezonlari, ularning boshlang'ich va keyingi baholanishi hamda qayta baholash modeli moliyaviy hisobotning shaffofligini oshirishini asoslab bergan [7].

S. Elliott esa moliyaviy hisobotning ishonchligi auditorlik tekshiruvlarining sifatiga bog'liqligini ta'kidlab, asosiy vositalar auditida hujjatlashtirish va dalillar yetariligi muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Uning fikricha, auditor har bir asosiy vosita bo'yicha yetarli va ishonchli audit dalillarini to'plashi shart [8].

Mahalliy olimlardan A. Karimov o'z ilmiy ishlarida asosiy vositalarning buxgalteriya hisobidagi o'rnini chuqur tahlil qilib, ularning to'g'ri baholanishi moliyaviy hisobot ishonchligini ta'minlashning asosiy omili ekanligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, asosiy vositalar qiymatini noto'g'ri aniqlash korxonalar foydasi va aktivlarining asossiz ravishda oshirib yoki kamaytirib ko'rsatilishiga olib keladi. Shuningdek, olim amortizatsiya hisoblash usullarining to'g'ri tanlanishi moliyaviy natijalarga sezilarli ta'sir ko'rsatishini asoslab bergan [9].

Yana bir mahalliy tadqiqotchi B. Xolbekov auditorlik faoliyatida ichki nazorat tizimining rolini o'rganib, asosiy vositalar auditida inventarizatsiya jarayonining muhimligini alohida ta'kidlaydi. Unga ko'ra, asosiy vositalarning haqiqiy mavjudligi va ularning hisobda aks ettirilishi o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash auditning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Xolbekov ichki audit tizimi kuchli bo'lgan korxonalarda xatoliklar darajasi sezilarli darajada past bo'lishini ilmiy asoslab bergan [10].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, asosiy vositalar auditini takomillashtirishda uchta asosiy yo'nalish muhim ahamiyatga ega: xalqaro standartlarni to'liq joriy etish, ichki nazorat tizimini kuchaytirish va riskka asoslangan audit yondashuvini keng qo'llash. Shu bilan birga, mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari bir-birini to'ldiradi hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tahliliy va solishtirma usullardan foydalanildi. Ushbu usul yordamida milliy audit tizimi va xalqaro audit standartlari o'rtasidagi farqlar o'rganildi. Asosiy vositalarni tekshirish, baholash va hujjatlashtirish jarayonlari chuqur tahlil qilindi. Tadqiqot davomida normativ hujjatlar, auditorlik standartlari hamda ilmiy adabiyotlar asosida ma'lumotlar yig'ildi va umumlashtirildi. Ushbu metodologiya asosiy vositalar auditini takomillashtirish yo'nalishlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etdi.



## TAHLIL VA NATIJALAR

Asosiy vositalar auditini takomillashtirish masalasi korxonalarining moliyaviy hisobotlarining ishonchligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Tadqiqot jarayonida tahliliy va solishtirma usullar qo'llanilib, milliy audit amaliyoti hamda xalqaro audit standartlari o'rtasidagi farqlar chuqur o'rganildi. Ayniqsa, asosiy vositalarni hisobga olish, baholash, amortizatsiya hisoblash va ularni auditdan o'tkazish jarayonlari tahlil markazida bo'ldi. Amaliy kuzatuvlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab korxonalarda asosiy vositalar hisobi hanuzgacha an'anaviy yondashuv asosida yuritiladi. Bu esa ularning real qiymati va hisobdagi qiymati o'rtasida tafovutlar paydo bo'lishiga olib keladi. Xalqaro amaliyotda esa IAS 16 "Property, Plant and Equipment" standarti asosida asosiy vositalar dastlabki tan olishda tannarx bo'yicha, keyinchalik esa qayta baholash yoki amortizatsiya orqali hisobga olinadi. Milliy amaliyotda esa qayta baholash mexanizmlarining yetarli darajada qo'llanilmasligi asosiy muammolardan biri sifatida aniqlandi.

Tahlil jarayonida auditorlik yondashuvi ham o'rganildi. Xalqaro audit standartlariga muvofiq, auditor asosiy vositalar auditini riskka asoslangan yondashuv asosida amalga oshirishi lozim. Bu jarayonda ISA 315 va ISA 330 standartlari muhim ahamiyatga ega bo'lib, ular auditorlik risklarini aniqlash va ularga javob berish tartibini belgilaydi. Biroq amaliyotda ayrim korxonalarda audit jarayoni formal tarzda amalga oshirilishi, risklarni chuqur baholamaslik holatlari mavjudligi kuzatildi. Asosiy vositalar auditida inventarizatsiya jarayoni ham muhim o'rin tutadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, inventarizatsiya ko'pincha yil yakunida formal tarzda o'tkaziladi va uning natijalari chuqur tahlil qilinmaydi. Bu esa asosiy vositalarning yo'qolishi, eskirishi yoki noto'g'ri hisobga olinishi kabi muammolarni yuzaga keltiradi. Xalqaro amaliyotda esa inventarizatsiya muntazam, rejalashtirilgan va raqamli tizimlar asosida amalga oshiriladi. Shuningdek, amortizatsiya hisoblash usullari ham tahlil qilindi. Ko'plab korxonalarda to'g'ri chiziqli usul ustunlik qiladi, biroq bu usul har doim ham aktivlarning real eskirish darajasini aks ettirmaydi. Xalqaro standartlarda esa aktivning foydalanish intensivligiga qarab turli amortizatsiya usullaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu holat moliyaviy natijalarning yanada aniqroq shakllanishiga xizmat qiladi.

Ichki nazorat tizimi tahlili shuni ko'rsatdiki, asosiy vositalar ustidan nazorat ko'pincha yetarli darajada tashkil etilmagan. Ayrim korxonalarda asosiy vositalar ro'yxati bilan real mavjudlik o'rtasida nomuvofiqliklar mavjud. Bu esa audit jarayonida qo'shimcha risklarni yuzaga keltiradi.

Umuman olganda, tahlil natijalari asosiy vositalar auditida eng katta muammolar — baholashning to'g'riligi, inventarizatsiya sifati, amortizatsiya usullarining mosligi va ichki nazorat tizimining zaifligi bilan bog'liqligini ko'rsatdi. Shu sababli, ushbu yo'nalishlarda chuqur islohotlar o'tkazish zarur.

O'tkazilgan tadqiqot va tahlillar asosida asosiy vositalar auditini takomillashtirish bo'yicha bir qator muhim ilmiy va amaliy natijalar olindi. Ushbu natijalar milliy audit tizimini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish zarurligini tasdiqlaydi.

Birinchi natija sifatida shuni aytish mumkinki, asosiy vositalarni hisobga olish va baholash jarayonida xalqaro standartlarga o'tish moliyaviy hisobotlarning ishonchligini sezilarli darajada oshiradi. IAS 16 standartining qo'llanilishi asosiy vositalarning real qiymatini aks ettirishga imkon beradi va aktivlar qiymatining sun'iy oshirilishini oldini oladi. Bu esa investorlar va kreditorlar uchun aniq va shaffof ma'lumotlar taqdim etadi. Ikkinchi muhim natija auditorlik jarayonida riskka asoslangan yondashuvning samaradorligi bilan bog'liq. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ISA 315 va ISA 330 standartlarini to'liq qo'llash auditorlik tekshiruvining sifatini oshiradi. Auditorlar asosiy vositalar bilan bog'liq risklarni oldindan aniqlasa, tekshiruv jarayoni ancha samarali va maqsadli bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari asosida asosiy vositalar auditini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ikki asosiy, amaliy jihatdan muhim yo'nalishdagi takliflar ishlab chiqildi. Ushbu takliflar audit jarayonining sifatini oshirish, moliyaviy hisobotlarning ishonchligini ta'minlash hamda xalqaro standartlarga moslashuvni jadallashtirishga qaratilgan.

Asosiy vositalar hisobini va auditini to'liq raqamlashtirish tizimini joriy etish. Bugungi raqamli iqtisodiyot sharoitida asosiy vositalar hisobini yuritish va ularning auditini amalga oshirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish eng muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ko'plab korxonalarda hali ham asosiy vositalar qo'lda yoki yarim avtomatlashtirilgan tizimlarda yuritilayotgani sababli, hisob ma'lumotlarida xatoliklar, nomuvofiqliklar va kechikishlar yuzaga kelmoqda. Shu sababli, korxonalarda ERP (Enterprise Resource Planning) tizimlarini joriy etish, shuningdek, asosiy vositalarni identifikatsiya qilishda barcode va RFID texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu tizimlar asosiy vositalarning kirim-chiqim harakatini real vaqt rejimida kuzatish imkonini beradi.

Raqamlashtirishning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- asosiy vositalar bo'yicha ma'lumotlar aniqligi oshadi;
- inventarizatsiya jarayoni avtomatlashtiriladi va tezlashadi;



- inson omili bilan bog'liq xatoliklar keskin kamayadi;
- auditor uchun ishonchli va tezkor ma'lumotlar bazasi yaratiladi;
- ichki nazorat tizimi mustahkamlanadi.

Natijada audit jarayoni nafaqat tezlashadi, balki uning sifati ham sezilarli darajada oshadi. Eng muhimi, korxonalar aktivlari ustidan to'liq shaffof nazorat o'rnatiladi.

Auditorlik faoliyatida riskka asoslangan yondashuvni to'liq joriy etish va ichki nazoratni kuchaytirish.

Asosiy vositalar auditida eng muhim omillardan biri — bu risklarni to'g'ri baholash va boshqarishdir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab korxonalarda audit jarayoni formal tarzda amalga oshiriladi va risklar yetarli darajada tahlil qilinmaydi. Bu esa noto'g'ri auditorlik xulosalariga olib kelishi mumkin. Shu sababli ISA 315 va ISA 330 xalqaro audit standartlari asosida riskka yo'naltirilgan auditorlik yondashuvini to'liq joriy etish zarur. Auditor har bir korxonada asosiy vositalar bilan bog'liq risklarni oldindan aniqlashi, ularning darajasini baholashi va shu asosda audit protseduralarini belgilashi lozim. Bundan tashqari, ichki nazorat tizimini kuchaytirish ham muhim ahamiyatga ega. Korxonalarda asosiy vositalar harakati ustidan doimiy nazorat o'rnatilishi, javobgarlik aniq taqsimlanishi va muntazam inventarizatsiya o'tkazilishi kerak.

Ushbu taklifning afzalliklari:

- audit xatoliklari kamayadi;
- moliyaviy hisobotlar ishonchliligi oshadi;
- asosiy vositalar ustidan to'liq nazorat ta'minlanadi;
- auditorlik xulosalari yanada asosli bo'ladi;
- korxonalar boshqaruvi uchun aniq risk xaritasi shakllanadi.

Natijada auditorlik faoliyati yanada professional darajaga ko'tariladi va xalqaro standartlarga to'liq moslashuv ta'minlanadi.

Asosiy vositalar auditini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagicha xulosa qilish mumkinki, ushbu yo'nalish korxonalarining moliyaviy barqarorligi va hisobotlarning ishonchliligini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Asosiy vositalar korxonalar ishlab chiqarish jarayonining moddiy asosini tashkil etgani sababli, ularning to'g'ri hisobga olinishi va auditdan o'tkazilishi iqtisodiy faoliyatning shaffofligini belgilab beradi. Tadqiqot davomida milliy audit amaliyoti bilan xalqaro audit standartlari o'rtasida bir qator farqlar mavjudligi aniqlandi. Xususan, risklarni baholash yondashuvi, inventarizatsiya jarayonining tashkil etilishi, amortizatsiya hisoblash usullari hamda ichki nazorat tizimining samaradorligi bo'yicha sezilarli tafovutlar kuzatildi. Ushbu farqlar asosiy vositalar auditining sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro audit standartlari asosida amalga oshiriladigan audit jarayoni yanada tizimli, aniq va shaffof ekanligi aniqlandi. Ayniqsa, ISA 315 va ISA 330 standartlari asosida risklarni aniqlash va ularga javob berish mexanizmlari auditorlik tekshiruvining sifatini oshiradi. Shu bilan birga, IAS 16 standarti asosida asosiy vositalarni hisobga olish ularning real qiymatini to'g'ri aks ettirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, asosiy vositalar auditida eng katta muammolar raqamlashtirish darajasining pastligi, ichki nazorat tizimining yetarli emasligi va audit jarayonining to'liq avtomatlashtirilmaganligi bilan bog'liq. Bu muammolarni bartaraf etish orqali audit sifatini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shuningdek, asosiy vositalar auditini takomillashtirish korxonalarining investitsion jozibadorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Chunki aniq va ishonchli moliyaviy hisobot investorlar uchun muhim qaror qabul qilish manbai hisoblanadi. Shaffof audit tizimi esa korxonalar xalqaro bozorlarda raqobatbardosh bo'lish imkonini beradi.

Asosiy vositalar auditini takomillashtirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshirilishi zarurligini ko'rsatadi: raqamlashtirishni keng joriy etish, riskka asoslangan audit yondashuvini qo'llash, ichki nazorat tizimini kuchaytirish va xalqaro standartlarga to'liq moslashuvni ta'minlash. Ushbu chora-tadbirlar amalga oshirilganda audit jarayoni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tariladi. Asosiy vositalar auditini takomillashtirish nafaqat buxgalteriya va audit sohasini rivojlantirish, balki umumiy iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlashda ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida PQ-4611-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4746047>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" to'g'risida" PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari to'plami. – Toshkent: Adolat, 2021.
4. Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi (IFAC). Xalqaro audit standartlari (ISA 315, ISA 330). – London, 2022.
5. Arens A., Elder R., Beasley M. Auditing and Assurance Services. – Pearson, 2018. – 784 p.
6. Hayes R., Wallage P. Principles of Auditing. – Pearson Education, 2017. – 620 p.
7. Alexander D., Nobes C. Financial Accounting: An International Introduction. – Pearson, 2016. – 512 p.
8. Elliott B., Elliott J. Financial Accounting and Reporting. – Pearson, 2017. – 824 p.
9. Karimov A. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019. – 256 b.



10. Xolbekov B. Audit asoslari va amaliyoti. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020. – 312 b.

# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 4**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)